INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK TEXNIKANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAHLILI

Abdusodiqova Shahlo G‘ayratovna

Navoiy davlat universiteti Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi mutaxassisligi tayanch doktaranti

Annotatsiya. Maqolada ingliz tili o‘qituvchilarining pedagogik texnikasini rivojlantirish jarayoni pedagogik va psixologik jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda emotsional intellekt, refleksiya va kommunikativ madaniyat o‘qituvchi kasbiy mahoratini shakllantirishda muhim omil sifatida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnika, ingliz tili o‘qituvchisi, psixologik tahlil, kasbiy kompetensiya, emotsional intellekt, refleksiya, kommunikativ madaniyat, raqamli ta’lim.

Аннотация. В статье анализируется процесс развития педагогической техники преподавателей английского языка с педагогической и психологической точек зрения. Установлено, что эмоциональный интеллект, рефлексия и коммуникативная культура являются важными факторами формирования профессионального мастерства учителя.

Ключевые слова: педагогическая техника, преподаватель английского языка, психологический анализ, профессиональная компетентность, эмоциональный интеллект, рефлексия, коммуникативная культура, цифровое образование.

Abstract. The article analyzes the development of pedagogical technique among English language teachers from pedagogical and psychological perspectives. The study identifies emotional intelligence, reflection, and communicative culture as key factors in shaping teachers’ professional competence.

Keywords: pedagogical technique, English language teacher, psychological analysis, professional competence, emotional intelligence, reflection, communicative culture, digital education.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida ingliz tili nafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki ilm-fan, texnologiya, diplomatiya va ta’lim sohalarida integratsiyaning asosiy kalitlaridan biriga aylanmoqda. Shu boisdan, ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatida yuqori darajadagi pedagogik texnikaga ega bo‘lish zamonaviy ta’lim jarayonining muhim talabi sifatida qaralmoqda. Ma’lumki, Pedagogik texnika — bu o‘qituvchining dars jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarga psixologik ta’sir o‘tkazish, kommunikativ muloqotni boshqarish, emotsional muvozanatni saqlash va ijodiy yondashuvni amalga oshirish ko‘nikmalaridir[2, 37].

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o‘qitish sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentning 2021-

ISSN 3030-3907

yil 19-maydagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5117-son qarorida ham o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini, shu jumladan pedagogik mahoratini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilgan. Bu esa ingliz tili o‘qituvchilarining nafaqat lingvistik bilimlari, balki pedagogik-psixologik tayyorgarligini takomillashtirish zarurligini taqozo etadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili o‘qituvchilari tayyorlovida pedagogik texnika elementlariga — verbal va noverbal kommunikatsiya, refleksiya, psixologik moslashuvchanlik, stressni boshqarish va motivatsion qo‘llab-quvvatlash strategiyalariga alohida e’tibor qaratiladi. Masalan, Buyuk Britaniya, AQSh, Finlyandiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda ingliz tili o‘qituvchilari uchun maxsus “teacher performance skills” kurslari joriy etilgan bo‘lib, ular o‘qituvchining hissiy intellektini, o‘quvchilar bilan muloqot madaniyatini va darsni boshqarish texnikasini rivojlantirishga qaratilgan[9, 45-73].

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida esa ingliz tili yo‘nalishidagi bakalavr va magistr dasturlarida metodika va psixologiya fanlarining o‘zaro integratsiyasini kuchaytirish, pedagogik texnikani amaliy mashg‘ulotlar orqali rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Chunki amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili o‘qituvchilarining aksariyati lingvistik bilimga ega bo‘lsa-da, o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, emotsional boshqaruv, konfliktli vaziyatlarda psixologik yondashuv ko‘rsatish ko‘nikmalarida kamchiliklarga ega. Shu nuqtai nazardan, ingliz tili o‘qituvchilarida pedagogik texnikani rivojlantirishning pedagogik-psixologik tahlilini o‘rganish, uning nazariy asoslarini aniqlash, rivojlantirish omillari va mexanizmlarini aniqlash bugungi kunda ilmiy va amaliy jihatdan nihoyatda dolzarbdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ingliz tili o‘qituvchilari kasbiy faoliyatining muvaffaqiyati ularning faqat lingvistik bilimlari emas, balki ta’lim jarayonini samarali tashkil eta olish, o‘quvchilarga psixologik ta’sir o‘tkazish va muloqotni boshqarish kabi pedagogik texnika darajasiga ham bevosita bog‘liqdir. Pedagogik texnika tushunchasi o‘qituvchining kasbiy mahoratining muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar e’tiborida bo‘lib kelmoqda.

Xalqaro ilmiy manbalarda pedagogik texnika masalasi ko‘pincha kommunikativ yondashuv (Communicative Language Teaching – CLT) nazariyasi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. J. Harmer, D. Larsen-Freeman, H. Douglas Brown singari tilshunos-pedagoglar o‘z tadqiqotlarida ingliz tili o‘qituvchisining muvaffaqiyati, avvalo, uning o‘quvchi bilan jonli muloqot o‘rnatish, dars jarayonida interaktivlikni ta’minlash, shuningdek, kommunikativ vaziyatlarga mos metodik texnikalarni qo‘llay olish qobiliyatiga bog‘liqligini ta’kidlaydilar.

ISSN 3030-3907

Ularning fikricha, samarali dars yuritish uchun o‘qituvchi nafaqat til bilimi, balki sinf psixologiyasini anglash, nutq ohangini boshqarish, tana tili, mimika, pauza va auditoriyani his etish kabi noverbal texnik elementlarga ham ega bo‘lishi lozim[5, 223-261].

So‘nggi yillarda xorijiy tadqiqotlarda ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy rivojlanishi (Teacher Professional Development – TPD) pedagogik texnikaning asosiy omili sifatida qaralmoqda. R. Richards, A. Farrell, J. Scrivener kabi tadqiqotchilar o‘qituvchilarning texnik mahorati faqat nazariy tayyorgarlik orqali emas, balki refleksiya, o‘z ustida ishlash, amaliy seminarlar va mentorlik tizimi orqali shakllanishini asoslab berganlar. Ular ishlab chiqqan TPD modellarida dars kuzatuvi, o‘z faoliyatini tahlil qilish, o‘quvchilarning fikr-mulohazalarini o‘rganish ham pedagogik texnikaning rivojlanishida muhim vosita sifatida baholanadi[5, 55-82; 6, 103-140].

Pedagogik texnikaning psixologik jihatlari masalasida G. Gardner, D. Goleman, P. Salovey kabi psixologlarning emotsional intellekt nazariyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning fikriga ko‘ra, o‘qituvchining dars jarayonidagi hissiy barqarorligi, empatiyasi, stressni boshqarish va o‘quvchilarning motivatsiyasini rag‘batlantirish ko‘nikmalari ta’lim samaradorligining muhim omillaridan biridir[1, 112-147]. Bu jihatlar pedagogik texnikaning psixologik komponentini tashkil etadi va o‘qituvchining muloqot madaniyatini, shaxslararo munosabatlarni boshqarish mahoratini belgilaydi.

XXI asrda ingliz tili o‘qituvchilarining pedagogik texnikasini takomillashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ham muhim yo‘nalishga aylandi. T. Bates, M. Warschauer, R. Blake singari olimlar blended learning, interaktiv platformalar, virtual laboratoriyalar va onlayn resurslar o‘qituvchining kasbiy faoliyatida texnik va metodik integratsiyani kuchaytirishini ta’kidlaydilar. Bunday yondashuv pedagogik texnikaning yangi shakllarini, jumladan, raqamli muloqot texnikasi, onlayn dars jarayonida auditoriya bilan bog‘lanish uslublarini shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston olimlari ham ushbu yo‘nalishda bir qator ilmiy izlanishlarni olib bormoqda. Jumladan, R. Yuldasheva, N. To‘rayeva, M. Xolmatova, G. Sodiqova kabi tadqiqotchilar ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirishda pedagogik texnikaning ahamiyatini yoritganlar. Ularning tadqiqotlarida darsda emotsional muhit yaratish, kommunikativ vazifalarni psixologik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish, o‘quvchilar bilan shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida muloqot o‘rnatish kabi masalalar tahlil qilingan[10, 27-35]. Mahalliy tadqiqotlarda, shuningdek, O‘zbekiston sharoitida ingliz tili o‘qituvchilari uchun tashkil etilayotgan malaka oshirish kurslarida pedagogik texnikani rivojlantirish metodikasi yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi qayd etiladi.

ISSN 3030-3907

Britaniya Kengashi va Xalq ta’limi vazirligi hamkorligidagi xalqaro loyihalarda o‘tkazilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbekistonlik ingliz tili o‘qituvchilari nazariy bilimlarga ega bo‘lishiga qaramay, darsni boshqarish, motivatsion yondashuv va muloqotni samarali yo‘lga qo‘yish borasida amaliy texnika jihatidan muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shu bois, xalqaro CLT, TPD va EI (Emotional Intelligence) yondashuvlarini milliy ta’lim tizimiga moslashtirish, ular asosida o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini kompleks rivojlantirish dolzarb ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

Umuman olganda, xorijiy va mahalliy adabiyotlarning tahliliga ko‘ra ingliz tili o‘qituvchisining pedagogik texnikasi — bu ko‘p komponentli tizim bo‘lib, u metodik mahorat, psixologik barqarorlik, kommunikativ kompetensiya va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Mazkur komponentlarning uzviy uyg‘unligi o‘qituvchining kasbiy samaradorligini oshiradi va ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini belgilaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi ta’lim muhiti shiddat bilan o‘zgarib borayotgan global jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq. Ingliz tili endilikda nafaqat o‘rganiladigan fan, balki shaxslararo, madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida qaralayotgani o‘qituvchidan keng psixologik, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni talab qilmoqda. Shu boisdan, o‘qituvchining pedagogik texnikasi avvalgidek faqat dars o‘tish uslublari bilan cheklanmay, balki emotsional intellekt, reflektiv tafakkur, muloqotni boshqarish madaniyati va ta’limda raqamli vositalarni psixologik moslashuv asosida qo‘llashni ham qamrab oladi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, ingliz tili o‘qituvchilarida pedagogik texnikani rivojlantirish uchta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishda kechadi:

1. Pedagogik-psixologik integratsiya – metodik bilimlar bilan bir qatorda hissiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish, o‘qituvchining shaxsiy fazilatlarini pedagogik faoliyat bilan uyg‘unlashtirish;

2. Kommunikativ-texnologik yondashuv – interaktiv dars jarayonlarini boshqarish, onlayn muhitda samarali muloqot yuritish, raqamli platformalarda psixologik yaqinlikni saqlay olish;

3. Reflektiv va innovatsion faoliyat – o‘qituvchining o‘z amaliyotini tahlil qilish, tajribani umumlashtirish va o‘qitish jarayoniga yangi g‘oyalar kiritish orqali kasbiy o‘sish mexanizmini shakllantirish.

Ushbu yo‘nalishlar o‘qituvchining kasbiy rivojlanishidagi psixologik barqarorlik va ta’lim jarayonidagi moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Shu jihatdan, pedagogik texnika o‘qituvchining faqat metodik emas, balki psixologik immunitetini shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘qituvchi o‘zida stressni boshqarish, o‘quvchi bilan hissiy kontakt o‘rnatish va o‘z nutqini hamda

ISSN 3030-3907

tana tilini ongli ravishda nazorat qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirgan sari, uning dars samaradorligi ham sezilarli ortadi.

Tadqiqotning amaliy natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan mavjud malaka oshirish dasturlarida pedagogik texnikaning psixologik komponenti yetarlicha tizimlashtirilmagan. Shuning uchun o‘qituvchilarni tayyorlashda emotsional intellektni rivojlantirish, stressni boshqarish, o‘quvchi bilan empatik muloqot o‘rnatish va reflektiv tahlil qilishga qaratilgan mashg‘ulotlarni joriy etish zarur. Bu amaliy yondashuv o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini anglashini chuqurlashtirib, o‘quvchilar bilan individual yondashuvni kuchaytiradi.

Shuningdek, xalqaro tajribalarning tahliliga muvofiq ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy rivojlanishida mentorlik tizimi, peer-observation (hamkasb kuzatuvi) va micro-teaching uslublari pedagogik texnikani shakllantirishda yuqori samaradorlik beradi. Mazkur metodlarni milliy sharoitga moslashtirish orqali o‘qituvchilarning o‘zaro tajriba almashinuvi, refleksiya va kasbiy o‘sish madaniyatini rivojlantirish mumkin.

Natijalarimizni umumlashtiradigan bo‘lsak, ingliz tili o‘qituvchilarida pedagogik texnikani rivojlantirish:

– o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasini oshiradi;
– sinfdagi psixologik muhitni ijobiylashtiradi;
– o‘qituvchi shaxsining kasbiy madaniyatini boyitadi;
– ta’lim sifati va motivatsion barqarorlikni ta’minlaydi.

Shunday qilib, ingliz tili o‘qituvchisining pedagogik texnikasini faqat metodik jarayon sifatida emas, balki shaxsiy-psixologik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmi sifatida ko‘rish dolzarb ilmiy yangiliklardan biridir. Mazkur yondashuv o‘qituvchi shaxsining har tomonlama yetuklashuvini ta’minlab, ta’lim jarayonida innovatsion, insonparvar va emotsional jihatdan barqaror muhitni yaratishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari ingliz tili o‘qituvchilarida pedagogik texnikani rivojlantirish jarayoni ularning kasbiy kompetensiyasi, kommunikativ madaniyati va psixologik barqarorligini ta’minlovchi muhim omil ekanini ko‘rsatdi. Pedagogik texnika o‘qituvchining dars jarayonida nutq madaniyati, emotsional muvozanati, o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish hamda ta’lim muhitini boshqarish qobiliyatini shakllantiradi.

Shuningdek, o‘qituvchining pedagogik texnikasi faqat metodik bilimlar emas, balki psixologik tafakkur, empatiya, refleksiya va raqamli vositalardan ongli foydalanish madaniyatini ham qamrab oladi. Bu jihatlar o‘qituvchi shaxsini

ISSN 3030-3907

zamonaviy ta’lim talablariga mos ravishda har tomonlama rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Ingliz tili o‘qituvchilarining malaka oshirish jarayoniga pedagogik texnika va emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan treninglarni kiritish;
2. O‘qituvchilar o‘rtasida mentorlik va hamkasb kuzatuvi tizimini yo‘lga qo‘yish orqali tajriba almashuv va refleksiyani kuchaytirish;
3. Ta’lim muassasalarida pedagogik texnikaning psixologik ko‘rsatkichlarini baholovchi mezonlarni ishlab chiqish va ularni muntazam monitoringdan o‘tkazish;
4. Ingliz tili o‘qituvchilari uchun stressni boshqarish, nutq texnikasi va muloqot madaniyatiga oid maxsus psixologik mashg‘ulotlar tashkil etish.

Umuman olganda, ingliz tili o‘qituvchilarida pedagogik texnikani pedagogik-psixologik yondashuv asosida rivojlantirish ularning kasbiy o‘sishini ta’minlab, ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchi shaxsini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Goleman, D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 2006. – 352 p. – P. 112–147.
2. Hasanov U. Pedagogik texnikaning kommunikativ aspektlari. // “Pedagogika va psixologiya” ilmiy jurnali. – 2023. – №2. – Б. 37–45.
3. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. – 5th ed. – London: Pearson Education, 2015. – 390 p. – P. 223–261.
4. Сластёнин В.А. Педагогика: Учебное пособие. – М.: Академия, 2019. – 320 с. – С. 211–250.
5. Щербаков А.И. Психология педагогического общения. – М.: Просвещение, 2018. – 276 с. – С. 89–130.
6. Richards, J. C., & Farrell, T. S. C. Professional Development for Language Teachers: Strategies for Teacher Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – 199 p. – P. 55–82.
7. Richards, J. C., & Lockhart, C. Reflective Teaching in Second Language Classrooms. – Cambridge: Cambridge University Press, 1996. – 191 p. – P. 103–140.
8. Wallace, M. J. Training Foreign Language Teachers: A Reflective Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 202 p. – P. 97–133.
9. OECD. Supporting Teacher Professionalism: Insights from TALIS 2018. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 168 p. – P. 45–73.

ISSN 3030-3907

10. Ходжаева Н. Ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda psixologik omillar. // “Til va ta’lim” ilmiy jurnali. – 2022. – №1. – Б. 27–35.

ISSN 3030-3907